

YURIDIK SHAXS - FUQAROLIK HUQUQ VA MAJBURIYATLARINING SUB'YEKTLARI

Turumbetov Azat Yusupbaevich

To'shkent davlat yuridika universiteti Davlat huquqiy faoliyat yo'nalishi

2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13974862>

Annotatsiya. Yuridik shaxs tushunchasi o'rganish, yuridik shaxs turlari jismoniy shaxsning huquq va muomala layoqatining vujudga kelishi hamda barham topishi tartibi ham yuridik shaxslardan farqlanishini o'rganish, qonuniy chorlarni tatbiq qilish kabilar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yuridik shaxs, jismoniy shaxs, mutaql balans, xuquq va majburiyatlar, operativ boshqaruv, jamoat birlashmalari.

LEGAL ENTITY - SUBJECTS OF CIVIL RIGHTS AND OBLIGATIONS

Abstract. Study of the concept of legal entity, types of legal entities, the procedure for the creation and termination of rights and legal capacity of a natural person, and the implementation of legal measures were considered.

Key words: legal entity, individual, independent balance sheet, rights and obligations, operational management, public associations.

ЮРИДИЧЕСКИЕ ЛИЦА - СУБЪЕКТЫ ГРАЖДАНСКИХ ПРАВ И ОБЯЗАННОСТЕЙ

Аннотация. Рассмотрено исследование понятия юридического лица, видов юридических лиц, порядка возникновения и прекращения прав и дееспособности физического лица, реализации правовых мер.

Ключевые слова: юридическое лицо, физическое лицо, самостоятельный баланс, права и обязанности, оперативное управление, общественные объединения.

Yuridik shaxs — fuqarolik huquq va majburiyatlarining sub'yektlari hisoblanuvchi korxona, muassasalari, tashkilotlar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, yuridik shaxs o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida molmulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu molmulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasining FKda Yuridik shaxslarning quyidagi ikkita turi farqlanadi:

1) tijoratchi tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilotlar. Masalan, xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari; 2) tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan tashkilotlar. Masalan, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari. Yuridik shaxslar fuqaro (fuqarolar) tomonidan (masalan, xususiy korxona, mas'uliyati cheklangan jamiyat, notarial kontora kabi shakllarda), Yuridik shaxslarning o'zlari tomonidan (masalan, o'zga aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini sotib olishi yo'li bilan, Yuridik shaxslar birlashma yoki uyushma ittifoqlariga birlashishi orqali), davlat tomonidan (masalan, operativ boshqaruvga asoslangan ta'lim muassasasini tashkil qilish, davlat molmulki bo'lgan korxona ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotgan paytda aksiyalarning bir qismi davlatning o'zida qolgan hollar) ta'sis etilishi mumkin. Ular, o'z navbatida, tashkil qilingan Yuridik shaxsning muassislari (ta'sischilari) hisoblanadilar. Shuningdek, O'zRda Yuridik shaxsning ta'sischisi chet el fuqarosi, chet el kompaniyasi (Yuridik shaxsi) ham bo'lishi mumkin. Qoidaga ko'ra, ustav jamg'armasining miqdori ta'sis etilayotgan Yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilayotgan paytda 150000 AQSh dollaridan ortiq va ulushning kamida 30 foizini chetel investorining hissasi tashkil etsa, bunday Yuridik shaxs — qo'shma korxona, agar yuz foiz ulush chet ellik investorga tegishli bo'lsa, bunday Yuridik shaxs — xorijiy korxona hisoblanadi. Ayni vaqtda bunday mulkiy senzlar mahalliy Yuridik shaxslarga ham o'rnatilgan. Chunonchi, mas'uliyati cheklangan jamiyatning, xo'jalik shirkatining ustav fondi jamiyatni, shirkatni davlat ro'yxatidan o'tkazish paytidagi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 50 baravaridan kam bo'lmasligi kerak. Ayni vaqtda Yuridik shaxslarning mulkiy mablag'lari sohasida ayrim cheklashlar ham mavjud.

Masalan, Yuridik shaxsning bir turi bo'lgan siyosiy partiyalar xayriya yordamini faqat O'zbekiston Respublikasi Yuridik shaxslari va fuqarolaridan oladilar (O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi „Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida“gi qonuni). O'zbekiston Respublikasining „Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida“gi qonuni (2000-yil 25-may)ga ko'ra, Yuridik shaxslar qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishlari mumkin. Shuningdek, ayrim faoliyat turlari bilan faqat ruxsatnoma (litsenziya) orqali shug'ullanishga yo'l qo'yiladi (O'zRning 2000-yil 25-maydagi „Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida“gi qonuni). O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 12-maydagi qarori bilan „Amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati“ belgilangan. Ularga, jumladan, atom energetikasi ob'yektlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ta'mirlash, geodeziya va

xaritagrafiya faoliyati, mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash, noshirlik, tibbiy, nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati kabilar kiradi.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga ko'ra, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ham taqiqlanadi.

Yuridik shaxslarning huquq layoqati u tuzilgan paytdan, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uning faoliyati tugashi (tugatilishi) bilan tugaydi.

Yuridik shaxs ustav asosida yoki ta'sis shartnomasi va ustav asosida yoxud faqat ta'sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo'lmagan Yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi nizom asosida ish olib borishi mumkin.

Yuridik shaxs qonunlarga va ta'sis hujjatlariga muvofiq ish olib boradigan o'z organlari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo'ladi va zimmasiga fuqarolik burchlarini oladi. Yuridik shaxs organlarini tayinlash yoki saylash tartibi qonunlar va ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda Yuridik shaxs o'z ishtirokchilari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo'lishi va fuqarolik burchlarini o'z zimmasiga olishi mumkin. Yuridik shaxslarning faoliyati qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) yoki tugatish (muassislarning qarori bilan, faoliyat ruxsatnomasiz olib borilganda, bankrot deb topilganda — sudning qarori bilan) orqali bekor bo'ladi.

Mamlakatimizda Yuridik shaxslar faoliyatini bevosita tartibga soluvchi bir qancha qonun hujjatlari mavjud: „O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida“ (1991-yil 15-fevral). „Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida“ (1996-yil 26-aprel). „Notariat to'g'risida“ (1996-yil 26-dekabr), „Advokatura to'g'risida“ (1996-yil 27-dekabr), „Ommaviy axborot vositalari to'g'risida“ (1997-yil 26-dekabr), „Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida“ (1998-yil 30-aprel), „Fermer xo'jaligi to'g'risida“ (yangi tahrirda 2004-yil 26-avgust), „Dehqon xo'jaligi to'g'risida“ (1998-yil 30-aprel), „Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida“ (1999-yil 14-aprel), „Qurilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun Yuridik shaxslarning javobgarligi to'g'risida“ (2000-yil 15-dekabr), „Xo'jalik shirkatlari to'g'risida“ (2001-yil 6-dekabr), „Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shma mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida“ (2001-yil 6 -dekabr), „Xususiy korxona to'g'risida“ (2003-yil 11-dekabr)gi va boshqalar qonunlar.

Jismoniy shaxs (fuqarolik huquqida) — huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi boʻlgan alohida fuqaro (chet el fuqarolari yoki fuqaroligi boʻlmagan shaxslar)ni ifodalovchi tushuncha. U jamoaviy tuzilma boʻlgan yuridik shaxs tuzilmasi bilan farq qiladi: jismoniy shaxs bevosita oʻz nomidan ish yuritadi — faoliyat yurgizishi uchun jamoaviy tuzilma — tegishli firma yoki korxonani qonunda belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazishi shart emas, jismoniy shaxsning huquq va muomala layoqatining vujudga kelishi hamda barham topishi tartibi ham yuridik shaxslardan farqlanadi.

Jismoniy shaxs mulk huquqi asosida mol-mulkka ega boʻlishi, uni meros qilib olishi va vasiyat etib qoldirishi; bankda oʻz jamgʻarmalarini saqlashi; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xoʻjaligi bilan, qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyat bilan shugʻullanishi; yollanma mehnatdan foydalanishi; yuridik shaxs tashkil etishi; shartnoma, bitimlar tuzishi va majburiyatlarini bajarishi; oʻziga yetkazilgan moddiy va maʼnaviy zararning qoplanishini talab qilishi; mashgʻulot turini va yashash joyini tanlashi; fan, adabiyot va sanʼat asarlari, qonun bilan qoʻriqlanadigan boshqa intellektual faoliyat samaralarining muallifi huquqiga ega boʻlishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolar — jismoniy shaxslarning huquq va burchlariga oid qonun-qoidalar FK da belgilab berilgan (16—38-moddalar).

Koʻp oʻrinlarda "jismoniy shaxs", "yuridik shaxs" atamalarini eshitamiz.

Ularning bir biridan farqi nimada?

Jismoniy shaxs - boshqacha qilib aytganda, fuqaro. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 16-moddasida Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi boʻlmagan shaxslar tushunilishi taʼkidlangan.

Mazkur Kodeksning 39-moddasidan yuridik shaxs tushunchasiga taʼrifni topish mumkin.

Oʻz mulkida, xoʻjalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega boʻlgan hamda oʻz majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, oʻz nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega boʻla oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudga daʼvogar va javobgar boʻla oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki Yuridik shaxslar va yuridik shaxs boʻlmagan tadbirkorlik sub'yektlari davlat roʻyxatidan qanday ozgaradi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Adliya vazirligining «Yuridik shaxslar va yuridik shaxs boʻlmagan tadbirkorlik sub'yektlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish toʻgʻrisida»gi qonun loyihasi joylashtirildi. Qonun loyihasiga koʻra, yuridik shaxslar va yuridik shaxs boʻlmagan tadbirkorlik sub'yektlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazishning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi: davlat roʻyxatidan oʻtkazish tartibi haqidagi axborotning ochiqligi va undan umumiy foydalanish; davlat roʻyxatidan oʻtkazish tartibiga nisbatan qoʻyiladigan talablarning yagonaligi; barcha yuridik

shaxslar hamda yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirishda teng huquqlar bilan ta'minlash.

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish – ro'yxatdan o'tkazuvchi organning ushbu Qonun doirasida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan ta'sis va boshqa hujjatlarni tekshirish yo'li bilan yuridik shaxs tashkil qilingani, qayta tashkil etilgani, uning ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganini rasmiylashtirish, shuningdek yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani berish, yuridik shaxsni tashkil etish, qayta tashkil etish to'g'risidagi va ushbu Qonunga asosan boshqa ma'lumotlarni Reyestrda kiritish bo'yicha harakatlaridan iborat.

Yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaliklarini davlat ro'yxatidan o'tkazish - ro'yxatdan o'tkazuvchi organning ushbu Qonun doirasida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish yo'li bilan yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaliklarini tashkil etilganini rasmiylashtirish, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani berish va yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaligini tashkil etilganligi to'g'risida hamda ushbu Qonunga asosan boshqa ma'lumotlarni Reyestrda kiritish bo'yicha harakatlaridan iborat.

Yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish - ro'yxatdan o'tkazuvchi organning ushbu Qonun doirasida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish yo'li bilan yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etilganini rasmiylashtirish, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani berish va yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etilganligi to'g'risida hamda ushbu Qonunga asosan boshqa ma'lumotlarni Reyestrda kiritish bo'yicha harakatlaridan iborat.

Davlat ro'yxatidan o'tkazishning xabardor qilish tartibi taqdim etilgan hujjatlar va ularda ushbu Qonunda ko'rsatilgan rad etish asoslarining yo'qligini o'rganish asosida yuridik shaxslar va yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik sub'yektlarini ularni bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati va davlat statistika organlarida "yagona darcha" prinsipi asosida hisobga qo'ygan holda davlat ro'yxatidan o'tkazishning tezlashtirilgan jarayonini ifoda etadi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarning davlat soliq xizmati va davlat statistika organlari bilan o'zaro hamkorligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi metaga ega bo'lislari kerak. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida Adliya vazirligining «Yuridik shaxslar va yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida»gi qonun loyihasi joylashtirildi. Qonun loyihasiga ko'ra, yuridik shaxslar va yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning

asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi: davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi haqidagi axborotning ochiqligi va undan umumiy foydalanish davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibiga nisbatan qo'yiladigan talablarning yagonaligi; barcha yuridik shaxslar hamda yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirishda teng huquqlar bilan ta'minlash. Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish – ro'yxatdan o'tkazuvchi organning ushbu Qonun doirasida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan ta'sis va boshqa hujjatlarni tekshirish yo'li bilan yuridik shaxs tashkil qilingani, qayta tashkil etilgani, uning ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganini rasmiylashtirish, shuningdek yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani berish, yuridik shaxsni tashkil etish, qayta tashkil etish to'g'risidagi va ushbu Qonunga asosan boshqa ma'lumotlarni Reyestrda kiritish bo'yicha harakatlaridan iborat. Yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish - ro'yxatdan o'tkazuvchi organning ushbu Qonun doirasida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish yo'li bilan jismoniy shaxsning yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega bo'lganini rasmiylashtirish, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani berish va jismoniy shaxsning yakka tartibdagi tadbirkor maqomiga ega bo'lganligi to'g'risida hamda ushbu Qonunga asosan boshqa ma'lumotlarni Reyestrda kiritish bo'yicha harakatlaridan iborat.

Yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaliklarini davlat ro'yxatidan o'tkazish - ro'yxatdan o'tkazuvchi organning ushbu Qonun doirasida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish yo'li bilan yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaliklarini tashkil etilganini rasmiylashtirish, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani berish va yuridik shaxs bo'lmagan dehqon xo'jaligini tashkil etilganligi to'g'risida hamda ushbu Qonunga asosan boshqa ma'lumotlarni Reyestrda kiritish bo'yicha harakatlaridan iborat.

Yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish - ro'yxatdan o'tkazuvchi organning ushbu Qonun doirasida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish yo'li bilan yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etilganini rasmiylashtirish, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani berish va yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etilganligi to'g'risida hamda ushbu Qonunga asosan boshqa ma'lumotlarni Reyestrda kiritish bo'yicha harakatlaridan iborat.

Xulosa. Davlat ro'yxatidan o'tkazishning xabardor qilish tartibi taqdim etilgan hujjatlar va ularda ushbu Qonunda ko'rsatilgan rad etish asoslarining yo'qligini o'rganish asosida yuridik shaxslar va yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik sub'yektlarini ularni bir vaqtning o'zida davlat

solliq xizmati va davlat statistika organlarida “yagona darcha” prinsipi asosida hisobga qo‘ygan holda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning tezlashtirilgan jarayonini ifoda etadi.

REFERENCES

1. O‘ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI (2000-2005).
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI.
3. KARPARATIV NIZOLARNI SUDDA KO‘RISHGA OID AYRIM MASALALAR (AMALIY QO‘LANMASI)
4. A.B.G‘AFUROVNING INTELEKTUAL MULK HUQIQINI XIMOYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI